



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA **MAKTAB** TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



BOSH MUHARRIR:

UMAROVA H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetlari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev A.K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhomdov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K.M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of Philosophy, Professor

Gafurov D.O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a Professor of Toshkent State University of Economics

Ashurov R.R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Panjiyev M.A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N.A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha; OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y , №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y , №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y , №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y , №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y , №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y , №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669245** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

HAYOTIY MAZMUNNI MO'LJALGA OLISH TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY QADRIYATLARNI BELGILOVCHI MEZON SIFATIDA.....	10
Xayrullaeva Zebiniso Toxirovna	
OITS BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK HOLATI DIAGNOSTIKASI.....	14
Rajabova Umida Ubaydulloyevna	
O'SMIRLARDA YOLG'IZLIK HISSINING IFODALANISHI:IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAHLIL.....	20
Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna	

OITS BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HOLATI DIAGNOSTIKASI

Rajabova Umida Ubaydulloyevna

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda OITS (Ottirilgan immun tanqisligi sindromi) global sog'liqni saqlash muammosi sifatida nafaqat fiziologik zaifliklarni, balki keng qamrovli ijtimoiy-psixologik oqibatlarni ham keltirib chiqaradigan murakkab holatdir. 2024-yilga kelib dunyo bo'ylab 40 million kishi ushbu virus bilan yashamoqda [1]. Bu kasallik inson immun tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki ijtimoiy-psixologik muhitda ham salbiy holatlarni yuzaga chiqaradi. OITS bilan yashovchi shaxslar ko'pincha stigmatizatsiya, diskriminatsiya va ijtimoiy chetlanishga duch keladilar. Bunday sharoit ularning ruhiy salomatligiga zarar yetkazib, depressiya va tashvish simptomlarining ortishiga olib keladi. Shu sababli, OITS bilan yashovchi shaxslarning psixosotsial holatini yaxshilash uchun jamiyatdagi stigma va diskriminatsiyani kamaytirish hamda ularning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlash zarur. Tadqiqotimizda biz ushbu psixosotsial omillarning shaxsning ichki psixik muvozanatiga, ijtimoiy faoliyatiga va emotsional barqarorligiga ta'sirini aniqlashni maqsad qildik.

Kalit so'zlar: stigmatizatsiya; diskriminatsiya; ijtimoiy chetlanish; biogen omillar; sotsiogen omillar; psixogen omillar; individual psixologik xususiyatlar.

Abstract. Today, AIDS (Acquired Immunodeficiency Syndrome) is recognized as a global public health challenge, representing a complex condition that leads not only to physiological vulnerabilities but also to extensive socio-psychological consequences. As of 2024, approximately 40 million people worldwide live with this virus [1]. The disease undermines the immune system and gives rise to adverse socio-psychological outcomes. Individuals living with AIDS frequently face stigmatization, discrimination, and social exclusion. Such factors negatively impact their mental health, contributing to increased rates of depression and anxiety. Therefore, improving the psychosocial well-being of people living with AIDS requires reducing societal stigma and discrimination and supporting their social integration. In our study, we aimed to determine how these psychosocial factors affect an individual's internal psychic balance, social functioning, and emotional stability.

Key words: stigmatization; discrimination; social exclusion; biogenic factors; sociogenic factors; psychogenic factors; individual psychological characteristics.

Аннотация. В настоящее время СПИД (синдром приобретённого иммунодефицита) рассматривается как глобальная проблема здравоохранения, представляя собой сложное состояние, вызывающее не только физиологические нарушения, но и обширные социально-психологические последствия. По состоянию на 2024 год во всём мире живут около 40 млн человек, инфицированных вирусом [1]. Это заболевание ослабляет иммунную систему и провоцирует негативные социально-психологические явления. Люди, живущие со СПИДом, часто сталкиваются со стигматизацией, дискриминацией и социальной изоляцией. Такие факторы оказывают неблагоприятное воздействие на их психическое здоровье, способствуя росту депрессии и тревожности. Поэтому для улучшения психосоциального статуса лиц, живущих со СПИДом, важно снижать уровень стигмы и дискриминации в обществе, а также способствовать их социальной интеграции. В данном исследовании мы стремились выявить влияние этих психосоциальных факторов на внутреннее психическое равновесие, социальное функционирование и эмоциональную стабильность индивидуума.

Ключевые слова: стигматизация; дискриминация; социальная изоляция; биогенные факторы; социогенные факторы; психогенные факторы; индивидуально-психологические особенности.

KIRISH

Tadqiqotlar va amaliy kuzatishlarga ko'ra, OITS bilan yashovchi bemorlarning ijtimoiy-psixologik holati o'ziga xos murakkablik va noziklikka ega bo'lib, bir necha omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi [2]. Bunday holatni to'liq anglash uchun biogen, sotsiogen va psixogen omillar chirmashgan holda namoyon bo'lishini hisobga olish zarur. Har bir omil bemorning shaxsiy tajribasi, atrof-muhit ta'siri va kasallik haqidagi ongli idroki orqali chuqur psixologik iz qoldiradi.

Biogen omillar – kasallikning o'zi, organizmga doimiy tibbiy aralashuv zarurati, immunitetning pasayishi, surunkali charchoq, og'riqlar kabi jismoniy o'zgarishlar – bemorning ruhiy barqarorligini zaiflashtiradi. Kasallik hayot uchun xavfli ekanligi esa doimiy tashvish, qo'rquv va ruhiy tushkunlikni keltirib chiqaradi. Natijada psikosomatik simptomlar (uyqusizlik, ishtahaning buzilishi, bosh og'rig'i va h.k.) kuchayadi.

Sotsiogen omillar – jamiyatdagi kasallikka oid stereotiplar, ijtimoiy stigmatizatsiya, salbiy munosabatlar va diskriminatsiya – bemorning o'zini ijtimoiy jihatdan rad etilgan deb his qilishiga olib keladi. Bu holat ijtimoiy izolyatsiya, ijtimoiy rol va maqomning yo'qolishi, yaqinlar bilan munosabatlarning sovuqlashishi yoki tugashi, ish joyidan chetlatilish kabi salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Natijada bemor ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidan uziladi va yolg'izlik hissi kuchayadi.

Psixogen omillar bemorning ichki kechinmalari, kasallikka bo'lgan shaxsiy munosabati, stressga chidamliligi, hayotiy qadriyatlari va moslashuv strategiyalarini o'z ichiga oladi. Kasallik tashxisi kuchli emotsional zarba sifatida namoyon bo'lib, inkor etish, o'zini ayblash, nomaqbul psixologik himoya mexanizmlari, motivatsiyaning pasayishi va kelajakka nisbatan umidsizlik kabi simptomlarni keltirib chiqaradi. Bemorning hayotga, sog'lig'iga va atrof-muhitga bo'lgan munosabati tubdan o'zgaradi; u ba'zida irodaviy pasayish, emotsional zaiflik va ijtimoiy rolning yo'qolishi oqibatida passiv holatga tushadi.

Shunday qilib, OITS bilan yashovchi shaxslarning ijtimoiy-psixologik holati individual, dinamik va ko'p qirrali bo'lib, uni chuqur tahlil qilish uchun kompleks, integrativ psixologik yondashuv zarur. Bunda bemorning jismoniy holati, ruhiy kechinmalari, ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalari hamda shaxsiy psixologik resurslari va moslashuv darajasi keng qamrovda o'rganilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S.C. Kalichman va K.J. Sikkemaning tadqiqotlari OITS bilan kasallangan shaxslarning psixologik holatini yaxshilashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va psixoterapiyaning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [3]. Ularning ilmiy ishlari ayniqsa OITS bilan kasallangan shaxslarning psixologik farovonligini oshirish, depressiyani kamaytirish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirishga qaratilgan innovatsion yondoshuvlarni ishlab chiqishda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalichman va Sikkema o'z tadqiqotlarida, shuningdek, stressni boshqarish, o'z-o'zini qadrlashni oshirish va ijtimoiy tarmoqlarda muloqotni rivojlantirish orqali kasallik bilan yashashni yengillashtiruvchi samarali usullarni taklif qilganlar. Ularning ishlarida keltirilgan psixoterapevtik yondoshuvlar, jumladan kognitiv-behavioural terapiya, OITS bilan bog'liq psixologik muammolarni hal qilishda yuqori samaradorlikka ega ekani ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [4].

Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, psixoterapevtik yondoshuvlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari OITS bilan kasallangan shaxslarning psixologik barqarorligini ta'minlashda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali vositalardir. Ushbu yondoshuvlar ruhiy tushkunlik, xavotir, ijtimoiy ajralish va o'z-o'zini past baholash kabi psixologik muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bemorlarning o'z hayotini ijobiy idrok etishi, kasallikka nisbatan moslashuvchanlik strategiyalarini ishlab chiqishi va kundalik hayotda psixologik muvozanatni saqlab qolishi uchun bunday psixologik qo'llab-quvvatlovchi yondoshuvlar alohida ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kalichman va Sikkema o'z tadqiqotlarida OITS bilan kasallangan bemorlarning individual psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil etib, ularning psixik holati, hissiy reaktivligi, stressga chidamliligi, depressiyaga moyilligi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar taqdim etganlar (1-jadvalga qarang) [5]. Ularning ilmiy izlanishlari kasallik bilan yashovchi shaxslar uchun maxsus moslashtirilgan psixologik xizmat ko'rsatish zarurligini asoslab bergan bo'lib, bu kasallik bilan kurashishda individual yondashuvning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

1-jadval:

OITS bilan kasallangan bemorlarning individual psixologik xususiyatlari (Kalichman va Sikkema tadqiqotlari asosida)

№	Psixologik jihatlar	Qisqacha tavsif	Kuzatiladigan muammolar
1	Emotsional holat	Tashxisdan so'ng kuchli psixologik zarba, stress, depressiv va xavotirli holatlar kuzatiladi	Depressiya, doimiy xavotir, hissiy beqarorlik
2	O'zini baholash	O'ziga nisbatan salbiy munosabat, o'z qadr-qimmatini past baholash holatlari rivojlanadi	O'zini rad etish, past o'ziga ishonch, aybdorlik hissi
3	Ijtimoiy munosabatlar	Stigmatizatsiya va jamiyatdan ajratilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatning yetishmasligi	Yakkalanish, ijtimoiy izolyatsiya, yaqin munosabatlardan chekinish
4	Stressga reaktivlik	Stressga bo'lgan individual reaksiya kuchli; salbiy holatlarga chidamsizlik rivojlanadi	Psixosomatik simptomlar, emotsional charchoq
5	Psixologik moslashuv strategiyalari	Hayotdagi og'ir vaziyatlarga nisbatan himoya va moslashuv mexanizmlari shakllanadi	Reallikdan qochish, agressivlik, inkor etish
6	Hayotiy motivatsiya	Umid va hayotga bo'lgan ijobiy qarashlar susayadi, kelajakka nisbatan ishonchsizlik kuchayadi	Motivatsion pasayish, befarqlik, psixologik tushkunlik
7	Yordamga munosabat	Psixologik yordamga ochiqlik yoki ichki qarshilik bilan yondashiladi	Yordamga ishonchsizlik, passivlik, o'z muammosini inkor etish

Tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, bemorlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan psixologik yondashuvlar kasallikning psixosotsial oqibatlarini yumshatishda, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etishda hamda umumiy hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotimizda mazkur yondashuvlarning dolzarbligi alohida ta'kidlanib, ularni amaliyotga tadbiiq etish orqali OITS bilan yashovchi shaxslarning psixologik barqarorligini mustahkamlash imkoniyati asoslab beriladi.

Tadqiqotimiz doirasida OITS bilan kasallangan shaxslarning ijtimoiy-psixologik holatini chuqur o'rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biridir. Bu toifadagi shaxslar nafaqat jismoniy o'zgarishlar bilan, balki jamiyatdagi salbiy stereotiplar, ijtimoiy ajratilish, ruhiy bosim va o'z-o'zini baholashdagi salbiy o'zgarishlar bilan ham to'qnash keladilar.


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, OITS tashxisi bilan yashovchi bemorlar ko'pincha depressiv holatlar, doimiy xavotir, psixologik izolyatsiya, umidsizlik hissi hamda o'z ijtimoiy qadriyatini past baholash kabi qiyinchiliklarga duch keladilar. Bizning fikrimizcha, bu psixologik muammolarning shakllanishida ijtimoiy stigma, tibbiy ma'lumotlarning yetishmasligi, psixologik yordam tizimining rivojlanmaganligi va madaniy omillar muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, kasallik tashxisidan so'ng shaxsning hayotga bo'lgan munosabati tubdan o'zgaradi: kelajak rejalari va umidlari so'nadi, ijtimoiy faollik pasayadi, o'zini yakkalangan yoki rad etilgan tarzda his qilish holatlari tez-tez uchraydi. Bu esa depressiv simptomlar, tashvish buzilishlari va o'zini past baholash kabi salbiy psixik holatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bunday vaziyatda bemorning psixologik ehtiyojlarini aniqlash va unga mos yordam ko'rsatish juda muhimdir. Psixologik yordam nafaqat ruhiy barqarorlikni tiklash, balki kasallik bilan kurashishda ichki motivatsiyani mustahkamlash, hayotga ijobiy munosabatni shakllantirish hamda psixosotsial moslashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish, yaqin insonlar va jamiyat tomonidan samimiy munosabatni ta'minlash bemorning salomatligi uchun muhim omillardandir.

Shuningdek, individual psixokorreksion yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali bemorning shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda ruhiy barqarorlikni ta'minlash, stressga chidamlilikni oshirish, moslashuv strategiyalarini shakllantirish va hayot sifatini yaxshilash mumkin bo'ladi. Bu kabi kompleks psixologik choralar OITS bilan kasallangan shaxslarning nafaqat psixik holatini barqarorlashtiradi, balki ularning jamiyatda faol ishtirok etishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizningcha, OITS bilan chalingan bemorlarning psixologik holatini baholashda quyidagi mezonlar asosiy ahamiyatga ega: (1-rasmga qarang).



1-rasm: OITS (Odam immunitet tanqisligi sindromi) bilan chalingan bemorlarning psixologik holatini baholash mezonlari.

Shu nuqtai nazardan, OITS bilan yashovchi bemorlarning ruhiy holatini yaxshilashda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Jumladan, individual psixoterapiya, qo'llab-quvvatlovchi guruhlar, motivatsion treninglar, stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar hamda psixosotsial dasturlari asosida tuzilgan intervensiyalarni qo'llash zarur.

OITS bilan kasallangan shaxslarning ijtimoiy-psixologik holatini o'rganish va ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashtirishga qaratilgan psixologik strategiyalar jamiyatimizda inson qadri, ruhiy salomatlik va psixologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, OITS bilan kasallangan bemorlar orasida keng tarqalgan ichki stigma (internalized stigma) ularning o'z shaxsiy qadriyatlarini past baholashga, o'zini stigmalashga (self-stigmatization) hamda motivatsion tushkunlik, depressiya va xavotirlanish holatlariga olib keladi. Bu psixologik holatlar kognitiv funksiyalar, stressga chidamlilik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlaridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi.

OITS bilan yashovchi bemorlar ko'pincha o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotadi, bu esa ularning psixologik adaptatsiyasini murakkablashtiradi. Ularning ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy va professional munosabatlardagi muvaffaqiyatlari pasayadi, bu esa jamiyatga integratsiyasi va hayotdan mamnunlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xavotirlanish va depressiv holatlar bemorning individual psixologik holatiga hamda uning jamiyatdagi faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. OITS bilan yashovchi shaxslar ko'pincha ijtimoiy izolyatsiya, rad etilish va ijtimoiy o'zgarishlarga qarshi qo'rquvni boshdan kechiradi. Natijada ular o'zlarini hayotdan ajralgan va jamiyatga tegishli emasdek his qilishadi, bu esa ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotimizda qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalar inson psixikasining ko'p qirrali jihatlarini

aniqlash, emotsional va ijtimoiy-psixologik holatini har tomonlama baholash imkonini beradi. Ular yordamida nafaqat psixologik muammolarni aniqlash, balki ularning kelib chiqish sabablari, ichki psixodinamik mexanizmlari, shaxsning moslashuv imkoniyatlari, himoya mexanizmlari va tashqi ijtimoiy-mu hit omillariga nisbatan sezuvchanlik darajasini chuqur o'rganish mumkin.

Tanlovimizda ayniqsa OITS bilan kasallangan bemorlarning ijtimoiy-psixologik holatini tizimli tahlil qilish zarurati asosiy rol o'ynadi. Chunki bu guruhdagi shaxslar stigmatizatsiya, ijtimoiy ajratilish, psixologik izolyatsiya, depressiya va xavotirli holatlarga duch keladilar, shuning uchun ularning ichki psixologik holatini chuqur anglashga yordam beradigan metodikalarni tanlash dolzarb hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizda kompleks psixodiagnostik yondashuv — ya'ni turli tipdagi metodikalarni uyg'unlashtirib qo'llash orqali shaxsning psixologik portretini tizimli, ko'p bosqichli va boy axborotga asoslangan tarzda shakllantirishga erishdik. Bu yondashuv diagnostika jarayonini samarali qilishi bilan birga, rejalashtiriladigan psixokorreksion va psixoterapevtik choralar uchun mustahkam ilmiy-axborot bazasini yaratadi.

OITS bilan kasallangan bemorlar misolida tanlangan metodikalar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari, hayot sifati, emotsional barqarorlik va psixologik chidamlilik darajasini baholashda muhim o'rin tutdi. Tadqiqot davomida aniqlangan psixologik xususiyatlar bemorlar bilan individual ishlash strategiyalarini ishlab chiqish va ularning hayot sifatini yaxshilash bo'yicha yondashuvlarni belgilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu metodikalar asosida psixologik intervensiyalar — ya'ni shaxsga ijobiy psixologik ta'sir o'tkazish uslublari, profilaktik va reabilitatsion dasturlarni tuzish hamda individual strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Bu esa OITS bilan yashovchi shaxslarning psixologik moslashuvi va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yondashuvni mustahkamlaydi.

Har bir tanlangan metodika psixologiyaning tegishli yo'nalishlari — shaxs psixologiyasi, klinik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va amaliy psixodiagnostika nazariyasi va metodologiyasiga tayangan. Bu tadqiqotimizning ilmiy asosligini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanishni ma'qul topdik:

“Depressiv holatlarning differensial diagnostikasi” (V.A. Jmurov)

Klinik psixologiya va psixopatologiya nazariy ishlanmalariga, xususan, Jaspers, Bleuler va Karvasarskiy nazariyalariga asoslangan [6]. Metodika endogen, nevrotik va reaktiv depressiyalarni farqlash, simptomlar spektri va og'irlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan. U depressiv simptomlar — emotsional holat, energiya darajasi, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy tushkunlik — indikatorlarini baholash imkonini beradi.

“Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya so'rovnomasi” (K. Rojers & R. Daymond)

Gumanistik psixologiya konsepsiyalariga, jumladan Rogers va Maslou nazariyalariga tayangan [7]. Metodika shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuv darajasini, ichki uyg'unligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va kommunikativ salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. U shaxsning real “Men” va ideal “Men” o'rtasidagi tafovut, psixologik moslashuvchanlik va ijtimoiy qarshilik ko'rsatkichlarini baholash imkonini yaratadi.

“Xavotirlanish darajasini aniqlash so'rovnomasi” (Ch.D. Spilberger & Yu.L. Xanina)

“Xavotir — ikki darajali fenomen” nazariyasiga asoslangan [9]. Metodika shaxsda holatli (state) va xususiy (trait) xavotir darajasini aniqlash, emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikni baholash uchun ishlatiladi.

“16 faktorli shaxs so'rovnomasi” (R.B. Kettell)

Trait-psixologiya va faktor tahlili metodologiyasiga tayangan [10,11]. Metodika shaxsiyatning barqaror, o'Ichab bo'ladigan xususiyatlari — emosional barqarorlik, ijtimoiy faollik, o'ziga ishonch, yangilikka ochiqlik va moslashuvchanlik — kabi 16 asosiy faktorini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini chuqur tahlil qilish va ilmiy xulosalarni asoslash uchun K. Pirson korrelyatsiya koeffitsienti va Student t-mesi qo'llanildi. Bu statistik yondashuv o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlab, empirik natijalar asosidagi xulosalarimizni mustahkamladi.

Umuman olganda, mazkur kompleks diagnostik va statistik yondashuvlar integratsiyada qo'llanilganda nafaqat shaxsning mavjud psixologik holatini aniqlash, balki psixokorreksion strategiyalarni shakllantirishda ham samarali nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning nazarimizda, mazkur metodikaning afzalliklaridan biri shundaki, u shaxsning individual xususiyatlarini tavsiflash bilan cheklanmay, balki uning moslashuv strategiyalari, psixologik himoya mexanizmlari va motivatsion tizimini o'rganish imkonini beradi. Bu esa psixokorreksion dasturlarni tuzish, shaxsga yo'naltirilgan terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda psixologik yordam samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Kettell metodikasi klinik, konsultativ va ta'lim psixologiyasi, shuningdek, psixoprofilaktika va kasbiy orientatsiya sohalarida keng qo'llaniladi. Bizning tajribamiz shuni ko'rsatdiki, ayniqsa surunkali kasalliklar bilan yashayotgan bemorlar bilan ishlashda bu metodikadan foydalanish orqali ularning psixosotsial holati, adaptiv resurslari va ichki salohiyatini aniqlashda samarali natijalarga erishish mumkin.

Ilmiy izlanishlarimiz natijalariga ko'ra, Kettell metodikasi nafaqat tashxis qo'yishda, balki intervensiya samaradorligini baholash, bemorning ichki ziddiyatlarini aniqlash, psixodinamik jarayonlarga kirib borish va moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. U asosida shakllangan psixologik tavsiyalar bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, ularni ijtimoiy muhitga qayta integratsiya qilish va ruhiy barqarorlikni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Shu bilan aytish mumkinki, OITS bilan kasallangan bemorlarning ijtimoiy-psixologik holatini chuqur va tizimli diagnostika qilish ularning psixik salomatligini tiklash, ruhiy barqarorligini ta'minlash hamda ijtimoiy moslashuvini yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv bemorlarning ichki resurslarini aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash hamda individual ehtiyojlardan kelib chiqib samarali psixokorreksion va psixoterapevtik dasturlarni ishlab chiqish imkonini yaratadi. Natijada kasallik oqibatlarini yengillashtirish bilan birga bemorlarning hayot sifati va ijtimoiy faolligi oshadi. Tadqiqotimizda diagnostik vositalarni puxta tanlash va individual yondashuv asosida chuqur tahlil qilish orqali OITS bilan yashovchi shaxslar uchun samarali psixologik yordam mexanizmlari ishlab chiqish imkoniyati asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.KX. World Health Organization (WHO) (2021). Global Tuberculosis Report. Geneva: WHO.
2. Carl Rogers. Client-Centered Therapy: Its Current Practice, Implications, and Theory Paperback – January 19, 2021. 592 p. ISBN-10-1841198404
3. Joseph, J.G., Emmons, C., Kessler, R.C., Wortman, C.B., O'Brien, K., Hocker, W.T., Schaefer, C. (1984). Coping with the threat of AIDS: An approach to psychosocial assessment. *American Psychologist*, 39(11), 1297-1302. doi:10.1037/0003-066X.39.11.1297
4. Jon Kabat-Zinn – "Full Catastrophe Living: Using the Wisdom of Your Body and Mind to Face Stress, Pain, and Illness". Delta Publishing. ISBN: 978-0345536932. 1990. 720 p.
5. Жмуров.В.А. «Психопатология. Часть I - II » Иркутск: изд-во ИГУ. 2002. Т.1.240 с; Т.2. 304. УДК: 616.89 (049,3)
6. Ironson, G., Antoni, M. H., O'Cleirigh, C., Fletcher, M. A., Laurenceau, J. P.(2005). Randomized controlled trial of cognitive-behavioral stress management for highly active antiretroviral therapy-treated HIV-infected persons. *Psychosomatic Medicine*, 67(5), 701–713.
7. Beevor, A.S., Catalan, J. (1993). Women's experience of HIV testing: The views of HIV positive and HIV negative women. *AIDS Care*, 5(2), 177-186. doi:10.1080/09540129308258598
8. Qurbonova, O.T. (2020). OITS bilan yashovchilarning oilaviy munosabatlari va psixologik holati.
9. Campbell, C., Skovdal, M., Gibbs, A. (2011). Creating social spaces to tackle AIDS-related stigma: Reviewing the role of church groups in sub-Saharan Africa. *AIDS and Behavior*, 15(6), 1204–1219.
10. Kalichman, S.C., Simbayi, L.C., Cloete, A., Mthembu, P.P., Mkhonta, R.N., Ginindza, T. (2022). Psychosocial predictors of maladjustment among people living with HIV/AIDS. *AIDS and Behavior*, 26(3), 721–734. doi:10.1007/s10461-021-03456-8
11. Bingenheimer, J.B., Geronimus, A.T. (2009). Behavioral mechanisms in HIV epidemiology and prevention: Past, present, and future roles. *Studies in Family Planning*, 40(3), 187-204. doi:10.1111/j.1728-4465.2009.00202.x



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Sobit Qayumov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.